

Toshkent shahrida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 96,5 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹






Toshkent shahar tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025- yil 1- yanvar holatiga, birlik	2026-yil 1- yanvar holatiga, birlik
Uchtepa tumani	6 667	7 365
Bektemir tumani	2 517	2 872
Yunusobod tumani	9 881	11 334
Mirzo-Ulug'bek tumani	9 881	11 270
Mirobod tumani	7 066	7 813
Shayhontoxur tumani	7 370	8 499
Olmazor tumani	7 869	8 596
Sirg'ali tumani	5 112	5 987
Yakkasaroy tumani	7 749	8 858
Yashnobod tumani	7 661	8 990
Yangihayot tumani	2 898	4 047
Chilonzor tumani	9 782	10 846
Toshkent sh.	84 453	96 477

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni](#)


II. Toshkent shahrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida 18 450 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 6 772 ta, boshqa xizmatlarda 4 601 ta ,

sanoatda 1 641 ta, hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 530 ta tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024-yil yanvar-dekabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-dekabr oylarida, birlik
Uchtepa tumani	1 104	1 234
Bektemir tumani	413	520
Yunusobod tumani	1 889	2 180
Mirzo-Ulug'bek tumani	1 884	1 992
Mirobod tumani	1 344	1 368
Shayhontoxur tumani	1 378	1 635
Olmazor tumani	1 458	1 556
Sirg'ali tumani	1 105	1 256
Yakkasaroy tumani	1 528	1 696
Yashnobod tumani	1 517	1 931
Yangihayot tumani	931	1 257
Chilonzor tumani	1 747	1 825
Toshkent sh.	16 298	18 450

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(oylik\)](#)


[Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni \(yillik\)](#)

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 51,7 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 0,6 % ga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 85 194,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 41,1 % ini tashkil etdi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Yunusobod (60,5 %), Olmazor (54,5 %), Chilonzor (51,9 %), Mirzo-Ulug'bek (45,1 %), Yakkasaroy (44,5 %), Mirobod (39,2 %), Uchtepa (36,7 %), Yangihayot (34,2 %), Shayhontoxur (31,0 %), Sergeli (30,2 %), Yashnobod (25,1 %) va Bektemir (25,1 %), hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\) hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari \(xizmatlari\)dagi ulushi \(choraklik\)](#)

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 57 047,0 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 64,5 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 120,3 % ni tashkil qildi.

Tumanalar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Sergeli (87,9 %), Mirzo Ulug'bek (77,3 %), Yashnobod (69,8 %), Uchtepa (68,4 %), Chilonzor (66,0 %), Mirobod (63,4 %), Yangiheyot (61,2 %), Yakkasaroy (59,9 %), Shayxontoxur (56,3 %), Yunusobod (53,1 %), Olmazor (45,8 %) va Bektemir (33,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

**Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami
hajmidagi ulushi dinamikasi**



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi \(choraklik\)](#)

**Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya
faoliyati**

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 56 128,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 53,1 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 143,1 % ni tashkil qildi.

Tumanalar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Uchtepa (72,3 %) , Yangihayot (67,5 %), Mirzo Ulug'bek (56,3 %), Yunusobod (47.2 %), Mirobod (41,8 %), ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan
chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 78 445,5 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 60,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 117,5 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Chilonzor (12 963,3 mlrd.so'm), Yunusobod (11 096,2,0 mlrd.so'm), Shayhontoxur (10 739,7,0 mlrd.so'm), Uchtepa (9 732,8 mlrd.so'm),

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami chakana savdo aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 162 612,2 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 40,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 115,6 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Yunusobod (19 563,5 mlrd.so'm), Mirobod (18 816,8 mlrd. so'm), Yakkasaroy (17 605,3 mlrd.so'm), Mirzo Ulug'bek (15 854,8 mlrd. so'm), tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami ko'rsatilgan xizmatlardagi ulushi \(choraklik\)](#)

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 1 495,5 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 22,7 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Olmazor 36,9 %, Yashnobod 36,0 % , Yangihayot 35,7 %ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksporti hajmi \(choraklik\)](#)


[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) eksportidagi ulushi \(choraklik\)](#)

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 11 631,3 million AQSH dollarini yoki jami importning 48,5 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Uchtepa 84,2 %, Yakkasaroy 63,7 %, Olmazor 57,8 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importi hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot \(ishlar, xizmatlar\) importidagi ulushi \(choraklik\)](#)

IV. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 48,2 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 125,8 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrida , avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 64,1 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,0 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrida , avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 69,3 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,2 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrida , avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 78,8 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,0 % ni tashkil qildi.

**Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi
ulushlari dinamikasi**



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yuk aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi tashish hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi tashishdagi ulushi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining yo'lovchi aylanmasi hajmi \(choraklik\)](#)
[Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami yo'lovchi aylanmasidagi ulushi \(choraklik\)](#)


V. Toshkent shahrida kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 33,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida esa 37,0 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-dekabrida nisbatan 3,2 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 56,6 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida 54,2 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-dekabrida 9,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-dekabriga kelib, bu ko'rsatkich 8,8 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)



Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2025- yilning yanvar-dekabrida 43,8 % ni tashkil qildi.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 50,1 % ni, o'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 6,1 % ni tashkil qildi.

Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning 4 choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – 39,4,% ni, sanoat sohasida – 35,5 % ni va savdo sohasida – 35,1 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdo – 55,3 % ni , sanoat sohasida – 55,2 % ni va qurilish sohasida – 54,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qurilish sohasida – 10,9 % ni, savdo – 9,6 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>

